





# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

## Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5341,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **9,9 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **459,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **140,2**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4882,1** mlrd. so'mni (**7,7 %** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **565,1** mlrd. so'mni (**98,8 %** ni) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5341,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **9,9** % ni tashkil etdi.



Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida Nukus shahri va tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,4** % va yirik korxonalar hissasiga **8,6** % to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **30,5** % ulush bilan **1629,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bo'zatov tumani **0,8** % ulush bilan **41,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiato'sh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **4882,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **107,7%** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **91,4 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qorao'zak (99,7 %), Kegeyli (99,5 %), Qonliko'l (99,7 %), Mo'ynoq (99,3 %), Taxtako'pir (99,5 %), Bo'zatov (99,6 %), Nukus (99,4 %) va Shumanay tumanlarida (99,5 %) yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-iyul oylarida nisbatan respublikaning Bo'zatov tumanidan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan Nukus shahri (112,3 %), Kegeyli (111,2%), To'rtko'l (116,8%), Xo'jayli (110,4 %) va Chimboy (109,7%), tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>5 341,7</b>	<b>109,9</b>	<b>459,6</b>	<b>140,2</b>	<b>4 882,1</b>	<b>107,7</b>
<b>Nukus shahri</b>	<b>1 629,2</b>	<b>112,3</b>	<b>372,1</b>	<b>168,2</b>	<b>1 257,1</b>	<b>102,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
<b>Amudaryo</b>	<b>379,0</b>	<b>106,6</b>	<b>9,9</b>	<b>62,0</b>	<b>369,2</b>	<b>108,7</b>
<b>Beruniy</b>	<b>435,1</b>	<b>106,2</b>	<b>14,1</b>	<b>107,8</b>	<b>421,0</b>	<b>106,1</b>
<b>Bo'zatov</b>	<b>41,5</b>	<b>104,8</b>	<b>0,2</b>	<b>71,2</b>	<b>41,3</b>	<b>105,1</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>147,6</b>	<b>107,0</b>	<b>0,4</b>	<b>134,9</b>	<b>147,2</b>	<b>106,9</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>197,8</b>	<b>106,6</b>	<b>0,7</b>	<b>80,6</b>	<b>197,1</b>	<b>106,7</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>175,7</b>	<b>111,2</b>	<b>0,8</b>	<b>118,6</b>	<b>174,9</b>	<b>111,2</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>362,3</b>	<b>107,5</b>	<b>10,2</b>	<b>66,9</b>	<b>352,1</b>	<b>109,4</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>48,9</b>	<b>109,0</b>	<b>0,3</b>	<b>116,1</b>	<b>48,5</b>	<b>109,0</b>
<b>Nukus</b>	<b>120,1</b>	<b>106,4</b>	<b>0,7</b>	<b>104,9</b>	<b>119,4</b>	<b>106,4</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>138,8</b>	<b>105,5</b>	<b>11,1</b>	<b>60,0</b>	<b>127,6</b>	<b>112,9</b>
<b>Taxtakopir</b>	<b>118,6</b>	<b>106,8</b>	<b>0,6</b>	<b>66,0</b>	<b>118,0</b>	<b>107,1</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>539,4</b>	<b>116,8</b>	<b>16,7</b>	<b>95,5</b>	<b>522,7</b>	<b>117,6</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>431,8</b>	<b>110,4</b>	<b>8,2</b>	<b>96,0</b>	<b>423,6</b>	<b>110,8</b>
<b>Chimboy</b>	<b>196,6</b>	<b>109,7</b>	<b>5,7</b>	<b>99,5</b>	<b>190,9</b>	<b>110,0</b>
<b>Shumanay</b>	<b>101,0</b>	<b>106,9</b>	<b>0,5</b>	<b>94,9</b>	<b>100,5</b>	<b>107,0</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>278,3</b>	<b>107,4</b>	<b>7,3</b>	<b>97,1</b>	<b>270,9</b>	<b>107,7</b>

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega tumanlar, foizda



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega tumanlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **140,2%** ni va **459,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblariga ko'ra, **4882,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **7,7%** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,4 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Nukus sh.	22,8	77,2
Ellikqal'a	2,6	97,4
Shumanay	0,5	99,5
Chimboy	2,9	97,1
Xo'jayli	1,9	98,1
To'rtko'l	3,1	96,9
Taxtako'pir	0,5	99,5
Taxiatosh	8,0	92,0
Nukus	0,6	99,4
Mo'ynoq	0,7	99,3
Qo'ng'iro't	2,8	97,2
Kegeyli	0,5	99,5
Qorao'zak	0,3	99,7
Qonliko'l	0,3	99,7
Bo'zatov	0,4	99,6
Beruniy	3,2	96,8
Amudaryo	2,6	97,4

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Bo'zatov (99,5 %), Qonliko'l (99,7 %) va Taxtako'pir (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,6% ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (22,8%), Taxiato'sh tumanida (8,0%), Beruniy (3,2 %) va To'rtko'l (3,1%) tumanlarida kuzatildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA AHOLI  
JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2731,8** ming so'm (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 8,4% ga o'sdi), Nukus shahri, To'rtko'l, Beruniy, Taxtako'pir, Shumanay, Qorao'zak, Chimboy va Ellikqal'a tumanlari aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (4928,1 ming so'm), Qorao'zak (3682,8 ming so'm) va Taxtako'pir (2913,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 731,8	108,4
Nukus shahri	4 928,1	110,4
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 843,6	104,7
Beruniy	2 195,4	104,5
Bo'zatov	1 904,4	104,8
Qonliko'l	2 805,6	105,4
Qorao'zak	3 682,8	105,8
Kegeyli	2 383,7	110,5
Qo'ng'iro't	2 719,9	106,4
Mo'ynoq	1 472,1	106,7
Nukus	2 305,4	104,5
Taxiatosh	1 833,3	104,2
Taxtako'pir	2 913,9	106,0
To'rtko'l	2 432,0	114,9
Xo'jayli	3 426,8	109,1
Chimboy	1 721,9	108,9
Shumanay	1 769,0	106,0
Ellikqal'a	1 684,6	105,5



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **565,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **98,8 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **266,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **118,4%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **298,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **86,1%**) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **266,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **298,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>565,1</b>	<b>98,8</b>	<b>266,2</b>	<b>118,4</b>	<b>298,9</b>	<b>86,1</b>
<b>Nukus shahri</b>	58,9	66,4	27,8	79,5	31,2	57,8
<i>tumanlar:</i>						
<b>Amudaryo</b>	33,8	83,3	15,9	99,8	17,9	72,6
<b>Beruniy</b>	38,6	91,4	18,2	109,6	20,4	79,7
<b>Bo'zatov</b>	14,5	108,0	6,8	129,4	7,7	94,1
<b>Qonliko'l</b>	26,8	117,0	12,6	140,3	14,2	102,0
<b>Qorao'zak</b>	30,5	64,2	14,4	77,0	16,1	56,0
<b>Kegeyli</b>	52,5	100,1	24,7	120,0	27,8	87,3
<b>Qo'ng'iro't</b>	37,3	72,5	17,6	86,9	19,8	63,2
<b>Mo'ynoq</b>	6,4	116,6	3,0	139,8	3,4	101,6
<b>Nukus</b>	29,3	120,4	13,8	144,3	15,5	104,9
<b>Taxiatosh</b>	16,4	174,5	7,7	209,1	8,7	152,0
<b>Taxtako'pir</b>	22,3	104,2	10,5	124,9	11,8	90,8
<b>To'rtko'l</b>	76,8	184,2	36,2	220,8	40,6	160,6
<b>Xo'jayli</b>	39,7	88,8	18,7	106,4	21,0	77,4
<b>Chimboy</b>	43,2	138,4	20,4	165,8	22,9	120,6
<b>Shumanay</b>	13,1	135,8	6,2	162,7	6,9	118,3
<b>Ellikqal'a</b>	24,9	100,7	11,7	120,6	13,2	87,7



**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
DEHQON BOZORLARI**



9,7  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



139,8  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



13,5  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

19,6  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



11,5  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

16,1  
mlrd. so'm



**Tuxum**

20,7  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

10,0  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

4,5  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**

8,1 mlrd.  
so'm



**Tovuq go'shti**

7,5 mlrd.  
so'm



**Ziravorlar**

2022- yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **266,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**139,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**


2022- yilning yanvar-iyul oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **298,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **211,0** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **44,5** mlrd. so'mni, otlar **6,2** mlrd. so'mni, parrandalar **2,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 113,2 mlrd. so'mga yetdi va 2021-yil yanvar-iyul oylarida nisbatan 105,4 % ni tashkil etdi.. Bunda jami savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>113,2</b>	<b>105,4</b>	<b>0,3</b>	<b>15,7</b>	<b>112,9</b>	<b>106,9</b>
<b>Nukus shahri</b>	<b>47,4</b>	<b>106,7</b>	<b>0,3</b>	<b>78,8</b>	<b>47,1</b>	<b>106,9</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	5,0	106,0	-		5,0	106,0
Beruniy	3,3	107,2	-		3,3	107,2
Bo'zatov	0,3	108,2	-		0,3	108,2
Qonliko'l	1,8	108,4	-		1,8	108,4
Qorao'zak	3,0	109,1	-		3,0	109,1
Kegeyli	1,4	104,2	-		1,4	104,2
Qo'ng'irot	27,0	102,6	-		27,0	108,5
Mo'ynoq	0,5	109,7	-		0,5	109,7
Nukus	1,0	108,6	-		1,0	108,6
Taxiatosh	2,5	107,2	-		2,5	107,2
Taxtakopir	0,8	105,8	-		0,8	105,8
To'rtko'l	6,8	103,7	-		6,8	103,7
Xo'jayli	6,2	103,4	-		6,2	103,4
Chimboy	3,1	105,5	-		3,1	105,5
Shumanay	0,5	108,2	-		0,5	108,2
Ellikqal'a	2,7	108,7	-		2,7	108,7

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2021- yil  
yanvar-iyul

2022- yil  
yanvar-iyul



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **113,2** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 105,4%) va mulkchilik shakllari bo'yicha **113,2** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0%) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	113 227,7	100,0	113 227,7	100,0	-	-
Nukus shahri	47 410,1	41,9	47 410,1	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	5 030,9	4,4	5 030,9	100,0	-	-
Beruniy	3 332,7	2,9	3 332,7	100,0	-	-
Bo'zatov	285,4	0,3	285,4	100,0	-	-
Qonliko'l	1 780,4	1,6	1 780,4	100,0	-	-
Qorao'zak	3 030,7	2,7	3 030,7	100,0	-	-
Kegeyli	1 381,3	1,2	1 381,3	100,0	-	-
Qo'ng'iro't	26 965,3	23,8	26 965,3	100,0	-	-
Mo'ynoq	450,4	0,4	450,4	100,0	-	-
Nukus	1 029,7	0,9	1 029,7	100,0	-	-
Taxiatosh	2 511,3	2,2	2 511,3	100,0	-	-
Taxtakopir	750,6	0,7	750,6	100,0	-	-
To'rtko'l	6 778,0	6,0	6 778,0	100,0	-	-
Xo'jayli	6 229,4	5,5	6 229,4	100,0	-	-
Chimboy	3 066,1	2,7	3 066,1	100,0	-	-
Shumanay	529,9	0,5	529,9	100,0	-	-
Ellikqal'a	2 665,5	2,4	2 665,5	100,0	-	-

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1451,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **3,4%** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **201,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **59,9** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1250,4** mlrd. so'mni (**17,0** % ga o'sdi) tashkil etdi.

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

1451,7 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

201,3 mlrd. so'm, 13,9%

Mikrofirma va kichik korxonalar

1250,4 mlrd. so'm, 86,1%

### Eng yuqori ulushga ega hududlar



Beruniy

To'rtko'l

Taxiatosh

Nukus shahar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'ZGARISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Taxiatioh tumanida (98,3%) Nukus shahrida (59,9%) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Mo'ynoq (773,2 %), Kegeyli (135,6 %), va Amudaryo (126,6%) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 451,7</b>	<b>103,4</b>	<b>201,3</b>	<b>59,9</b>	<b>1 250,4</b>	<b>117,0</b>
<b>Nukus shahri</b>	674,5	95,2	26,7	17,0	647,9	117,6
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	32,6	122,5	-	-	32,6	126,6
Beruniy	96,4	111,1	-	-	96,4	111,1
Bo'zatov	3,0	113,9	-	-	3,0	113,9
Qonliko'l	25,7	111,5	-	-	25,7	111,5
Qorao'zak	18,0	110,3	-	-	18,0	110,3
Kegeyli	1,4	135,6	-	-	1,4	135,6
Qo'ng'iro't	44,6	111,5	-	-	44,6	111,5
Mo'ynoq	30,6	773,2	-	-	30,6	773,2
Nukus	80,9	107,9	-	-	80,9	107,9
Taxiatioh	203,4	100,4	174,7	98,3	28,7	116,0
Taxtako'pir	14,5	116,0	-	-	14,5	116,0
To'rtko'l	98,7	110,0	-	-	98,7	110,0
Xo'jayli	25,3	112,2	-	-	25,3	112,2
Chimboy	27,4	110,0	-	-	27,4	110,0
Shumanay	0,6	111,6	0,0	29,8	0,6	111,8
Ellikqal'a	74,0	108,6	-	-	74,0	108,6

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



RK Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a




Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, **1250,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **117,0%** ni tashkil etdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,1%** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'iro't, Qonliko'l va Ellikqal'a tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Taxiatosh (14,1%) tumaniga to'g'ri keldi.



## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'ri pasayib bormoqda. 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **1451,7** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **1451,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.